

KALANCHOE DAIGREMONTIANA O'SIMLIGINING FARMAKOLOGIK XUSUSIYATLARI VA UNING TIBBIYOT AMALIYOTIDA QO'LLANILISHINING ILMIY ASOSLARI

Hayitboyeva SH.Q.
Toshtemirova Ch.T.

Osiyo xalqaro universiteti, Urganch sh.,Xorazm vil.,O'zbekiston Respublikasi
e-mail: hayitboyevashaxriniso@gmail.com, tel: 97-035-18-28
<https://doi.org/10.5281/zenodo.18810965>

Dolzarbli: Hozirgi vaqtda tabiiy birikmalar asosida yangi dori vositalarini yaratish farmakologiyaning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Kalanchoe daigremontiana o'zining boy kimyoviy tarkibi va polifunksional biologik faolligi bilan dunyo olimlari e'tiborini tortib kelmoqda. Xususan, ushbu o'simlikning xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan o'rganilishi, uning O'zbekiston iqlim sharoitida o'stirilgan namunalarining biologik faolligini qiyosiy baholash dori vositalarini standartlash uchun muhim ahamiyatga ega.

Maqsadi: K. daigremontiana o'simligining farmakologik xususiyatlari bo'yicha jahon va mahalliy olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijalarini qiyosiy tahlil qilish.

Metodlar: PubMed, Scopus va Google Scholar bazalaridagi 2014–2026-yillarga oid xalqaro nashrlar hamda O'zbekiston Milliy kutubxonasi bazasidagi mahalliy ilmiy ishlar tizimli tahlil qilindi.

Natijalar: **Jahon olimlarining tadqiqotlari:** Xalqaro miqyosda urg'u asosan o'simlikning antitumor (saraton xujayralariga qarshi) faolligiga qaratilgan. Daniela Alejandra Torres Ortiz va boshqalar (2026) o'simlik ekstrakti yordamida sintez qilingannanopartikullar inson leykemiyani davolashda o'simlikdan olingan AuNPlarning qo'shimcha terapevtik salohiyati, hujayralarga sitotoksik ta'sir ko'rsatishini isbotlagan [1]. Shuningdek, Stefanowicz-Hajduk (2020) o'simlik ekstraktlari melanoma hujayralari ko'payishini sezilarli darajada tormozlashini tasdiqlagan [2].

Mahalliy olimlarning tadqiqotlari: O'zbekistonlik olimlar asosan o'simlikning regenerativ (jarohat bitkazuvchi) va introduksiya imkoniyatlarini o'rganmoqdalar. Z.O.Mirzayeva (2026) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda, O'zbekiston iqlimida yetishtirilgan Kalanchoe turlarining botanik xususiyatlari, kelib chiqishi, morfologik tuzilishi hamda dorivor ahamiyati yoritilgan. O'simlikning xalq tabobatidagi ahamiyati, biologik faol moddalari va o'stirish sharoitlari qisqacha bayon etilgan.[3]. M. Sobirova va N. Sherboyeva (2024) Kalanxoe o'simligining botanik o'rni tarqalishi, ishlatilish sohalari, kimyoviy tarkibi hamda sersuv barglaridan ekstrakt ajratib olish texnologiyasini va farmatsevtik xomashyo sifatidagi istiqbolini baholaganlar [4].

Xulosa : Jahon olimlari ko'proq molekulyar darajadagi antitumor xususiyatlarga e'tibor berayotgan bo'lsa, mahalliy tadqiqotchilar o'simlikning klinik amaliyotdagi regenerativ samaradorligi va mahalliy xomashyo bazasini yaratishga urg'u bermoqdalarlekin hali ham mahalliy tadqiqotchilar tomonidan keng o'rganish talab etilmoqda. Bu ikki tomonlama yondashuv o'simlik asosida kompleks ta'sirga ega preparatlar yaratish uchun xizmat qiladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Daniela Alejandra Torres Ortiz va boshqalar (2026). Selective cytotoxicity properties of Kalanchoe daigremontiana-mediated gold nanoparticles against Jurkat leukemia cells

<https://doi.org/10.1088/1748-605X/ae47b3>

2. Stefanowicz-Hajduk, S., et al. (2020). Biological Activities of Leaf Extracts from Selected Kalanchoe Species. <https://pmc.ncbi.nlm.nih.gov/articles/PMC7470146/> [2]
3. Z.O.Mirzayeva (2026) KALONXOE O'SIMLIGINING BIOLOGIK TAVSIFI VA TURLARI <https://journalss.org/index.php/luch/article/view/16573> [3]
4. Sobirova va N. Sherboyeva (2024) . KALANXOE (KALANCHOE) O'SIMLIGINING BIOLOGIK FAOL MODDALARI VA EKSTRAKT OLISH TEXNOLOGIYASI
5. <https://universalconference.us/universalconference/index.php/crismw/article/view/1272>